



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TASHQI QARZ HOLATINING IQTISODIY TAHLILI

Otajonova Charosxon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-6841-8487

otajonovacharosxon@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat qarzining mazmun-mohiyati, uning turlari, moliyaviy manbalari, xorijiy investitsiya va davlat tashqi qarzi o'rtasidagi farqlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada davlat qanday holatda, nima maqsadlarda qarz majburiyatlariga murojaat qilishi ham bayon qilingan. Maqolada O'zbekiston tomonidan olingan qarzlarning iqtisodiy-moliyaviy holati tahlili amalga oshirilgan bo'lib, qaysi davlatlardan, xorijiy moliya institutlaridan qancha miqdorda qarz olinganligi keltirilgan. Shuningdek, O'zbekiston tomonidan olingan qarz majburiyatlari qaysi tarmoq va sohalarga yo'naltirilayotganligining statistik tahlili ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: yalpi ichki mahsulot, davlat byudjeti, byudjet profitsiti, byudjet defitsiti, davlat qarzi, tashqi qarz, ichki qarz, xalqaro moliyaviy tashkilotlar, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, kambag'allikni qisqartirish.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИТУАЦИИ С ВНЕШНИМ ДОЛГОМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Отажонова Чаросхон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматривается сущность государственного долга, его виды, источники финансирования, а также различия между иностранными инвестициями и государственным внешним долгом. В статье также описывается, в каких случаях и для каких целей государство прибегает к долговым обязательствам. В статье анализируется экономическое и финансовое положение кредитов, полученных Узбекистаном, а также перечислены страны, из которых и объемы кредитов, полученных от иностранных финансовых институтов. Также представлен статистический анализ секторов и отраслей, на которые направлены долговые обязательства Узбекистана.

Ключевые слова: валовой внутренний продукт, государственный бюджет, профицит бюджета, дефицит бюджета, государственный долг, внешний долг, внутренний долг, международные финансовые организации, иностранные инвестиции, экономический рост, экономическое развитие, инфраструктура, сокращение бедности.

ECONOMIC ANALYSIS OF THE EXTERNAL DEBT STATUS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Otajonova Charoskhon

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article covers the essence of state debt, its types, financial sources, the differences between foreign investment and state external debt. The article also describes in what cases and for what purposes the state resorts to debt obligations. The article analyzes the economic and financial situation of the debts received by Uzbekistan, and indicates from which countries and foreign financial institutions the amount of debt was received. It also provides a statistical analysis of the sectors and areas to which debt obligations received by Uzbekistan are directed.*

Keywords: *gross domestic product, state budget, budget surplus, budget deficit, state debt, external debt, internal debt, international financial organizations, foreign investment, economic growth, economic development, infrastructure, poverty reduction.*

Kirish.

Davlat qarzi nafaqat rivojlanayotgan balki rivojlangan mamlakatlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki davlat qarzi mamlakatning iqtisodiy holatini, moliyaviy barqarorligini va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini belgilaydi.

Ko'pchilik tinglovchilar uchun qarz ayniqsa davlat qarzi tushunchasi salbiy tushuncha sifatida e'tirof etiladi. Aslida esa davlat qarzi ijobiy tushuncha sifatida ham qabul qilish mumkin. Davlat qarzi mamlakat iqtisodi uchun xatarli yoki xavfsiz ekanligini qarz qanday maqsadlar uchun jalb qilinayotganligi hamda yo'naltirilayotganligi belgilab beradi. Agar davlat qarzni quyidagi maqsadlar uchun olsa bu iqtisodiy rivojlanishga olib keladi. Ular:

- Kapital loyihalar ya'ni yo'llar, maktablar, shifoxonalar qurish kabi yirik infratuzilma loyihalari uchun qarz olish davlatga xarajatlarni birdaniga to'lash o'rniga vaqt o'tishi bilan taqsimlash imkonini beradi.

- Iqtisodiy rag'batlantirish: Iqtisodiy tanazzul davrida davlat rag'batlantirish dasturlarini moliyalashtirish yoki ish o'rinlari yaratish va o'sishga sarmoya kiritish uchun qarz olishi mumkin. Ushbu maqsadda olingan qarz ham iqtisodiyot uchun ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Budjet taqchilligini qoplash hamda olingan qarzlarni qayta moliyalashtirish uchun jab etilayotgan qarzlar iqtisodiyot uchun xavfli bo'lishi mumkin. Davlat qarzi quyidagi jihatlari bilan dolzarblik kasb etadi:

Iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish: davlat qarzi, ayniqsa davlatning tashqi qarzi o'z vaqtida va to'g'ri boshqarilgan bo'lsa, u iqtisodiyot uchun muhim bo'lgan investitsiyalarni, moliyaviy resurslarni jalb qilishga ko'mak beradi. Ammo olingan qarz darajasi haddan ziyod yuqori bo'lsa, bu makroiqtisodiy barqarorlikni xavf ostiga qo'yishi mumkin.

Inflyatsiya va valyuta kurslari: davlat qarzi o'z navbatida inflyatsiya va valyuta kurslariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan davlat qarzini xorijiy valyutada olgan bo'lsa, valyutaning pasayishi qarzni qaytarishning qiyinlashishiga olib keladi.

Adabiyotlar sharhi.

Davlat qarzi iqtisodning markaziy mavzusi bo'lib, ko'plab iqtisodchilar uning oqibatlari, sabablari va yechimlari haqida nazariyalar va tushunchalarni taklif qilishgan. Milliy qarzni keng muhokama qilgan taniqli iqtisodchilardan biri Jon Meynard Keynsdir, ammo bu masalani turli nuqtai nazardan ko'rib chiqqan klassik va zamonaviy iqtisodchilar ham bor. Turli iqtisodchilar milliy qarzga qanday qarashlari haqida umumiy ma'lumot, nazariy va amaliy ta'sirlarga e'tibor qaratiladi.

Keynsning 1936-yilda nashr etilgan “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” nomli kitobida davlat qarzi borasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan: “Keynsning fikricha, tanazzul davrida hukumat budget taqchilligini yuzaga keltirsa ham (ya’ni, qarz olish) xarajatlarni oshirishi kerak. G‘oya shundan iborat ediki, davlat xarajatlarining ko‘payishi talabni rag‘batlantiradi, ish o‘rinlarini yaratadi va natijada iqtisodiy ishlab chiqarishni oshiradi. Iqtisodiy sharoitlar yaxshilanishi bilan soliq tushumlari ko‘payadi, bu vaqt o‘tishi bilan kamomad va davlat qarzini kamaytirishga yordam beradi”. (Skidelsky, 2016)

Keynsdan farqli o‘laroq, Smit va Rikardo kabi klassik iqtisodchilar muvozanatli byudjetlar va fiskal cheklovlar muhimligiga ishonishgan. Ular sog‘lom pul g‘oyasiga urg‘u berib, davlatning ortiqcha qarz olishi inflyatsiyaga, foiz stavkalarining oshishiga va xususiy sektorga investitsiyalarning qisqarishiga olib kelishi mumkinligidan ogohlantirdilar (Ricardo, 2010). Monetaristlar yetakchisi Fridman haddan tashqari davlat qarzi inflyatsiyaga olib kelishi va iqtisodiy barqarorlikka putur etkazishi mumkinligidan ogohlantirdi (Ergashev, 2021).

O‘zbekiston Respublikasining 02.08.2023-yilda qabul qilingan O‘RQ-836-sonli “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi qonunida davlat qarziga quyidagicha ta’rif berilgan: davlat qarzi bu — O‘zbekiston Respublikasining ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida yuzaga kelgan majburiyatlaridir (Qonun, 2023).

So‘nggi yillarda milliy qarzga nisbatan moslashuvchan yondashuvni qabul qilish kuchaymoqda, ba’zi iqtisodchilar, ayniqsa, iqtisodiy noaniqlik davrida o‘sishni qo‘llab-quvvatlash uchun hukumatning faolroq aralashuvini targ‘ib qilmoqdalar. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishda davom etar ekan, milliy qarz haqidagi munozaralar iqtisodiy siyosat va nazariyaning markaziy mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolani o‘quvchilar uchun yanada qullayroq va tushunarli bo‘lishi uchun quyidagi tadqiqot metodologiyalaridan: ilmiy yondashuv, taqqoslash, kuzatuv, solishtirma tahlil, mikro hamda makrodarajadagi tahlil, statistik tahlil kabilardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatning umumiy tashqi qarzi - mahalliy iqtisodiyotning xorijliklar (*xorijiy davlatlar, xalqaro moliyaviy institutlar va boshqalar*) oldidagi amaldagi, (*ya’ni hali to‘lovlari amalga oshirilmagan*) kelajakda ma’lum bir muddatda qaytarilishi talab qilinadigan majburiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Tashqi qarz, davlat tashqi qarzi hamda xususiy sektor tashqi qarziga bo‘linadi. Davlat tashqi qarzi, hukumat tomonidan jalb qilingan yoki uning kafolati ostida olingan tashqi qarzlarni o‘z ichiga olsa, xususiy sektor tashqi qarzi, o‘z navbatida, davlat majburiyat olmagan qarzlardan iborat.

Tashqi qarz – bu davlat yoki xususiy sektor tomonidan xorijiy kreditorlardan (xorijiy hukumatlar, xalqaro tashkilotlar yoki xususiy banklardan) olingan pul mablag‘lari tushuniladi. Uning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

- Ikki tomonlama qarz: bir hukumatdan boshqasiga berilgan kreditlar.
- Ko‘p tomonlama qarz: Xalqaro valyuta fondi yoki Jahon banki kabi xalqaro institutlarning kreditlari.
- Tijorat qarzi: banklar yoki korporatsiyalar kabi xususiy xorijiy kreditorlardan olingan kreditlar.

Odatda tashqi qarz davlat loyihalarini, infratuzilmani yoki to‘lov balansi ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun olinadi. Tashqi qarzni foizlar asosida, vaqt o‘tishi bilan, odatda belgilangan jadval asosida to‘lash lozim.

Xorijiy investitsiyalar va tashqi qarzi o‘rtasidagi asosiy farqlar: xorijiy investitsiyalar qarz olish munosabatlarini o‘z ichiga olmaydi, tashqi qarz esa to‘lanishi kerak bo‘lgan qarz mablag‘larini o‘z ichiga oladi. Chet el investitsiyalari qaytarishni talab qilmaydi, lekin tashqi

qarz bundan mustasno. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdan maqsad iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va daromad olishga yo'naltirilgan, tashqi qarz esa odatda hukumat yoki biznesning bevosita moliyaviy ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasining umumiy tashqi qarzi bo'yicha jadvallar va tahliliy ma'lumotlar har chorakda Markaziy bank tomonidan foydalanuvchilarga taqdim qilinadi. Bunda O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarzi bo'yicha jamlangan ma'lumotlar Moliya vazirligi tomonidan, xususiy sektor tashqi qarzlar bo'yicha ma'lumotlar esa Markaziy bank tomonidan shakllantiriladi.

O'zbekistonda ham tashqi qarz samaradorligini oshirish borasida juda ko'plab strategik chora tadbirlar amamlga oshirilib kelmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida 2025 yilda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha:

- davlat kafolati ostida jalb qilinadigan kreditlar hisobidan 5,26 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni o'zlashtirish;

- kafolatlanmagan kreditlar hisobidan 2,76 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag'larni o'zlashtirish;

- 6,17 milliard AQSH dollari miqdoridagi istiqbolli investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar belgilandi (Prezidentining, 11.02.2025 yildagi PQ-51-sonli qarori.).

O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi 2024-yil yakunlariga ko'ra o'tgan yilga nisbatan 15,09 foizga oshib 40199 million AQSh dollarini tashkil qilib, YaIM ga nisbatan 35 foizni tashkil qildi. Unda davlat tashqi qarzi 33720 million AQSh dollarni tashkil qilib umumiy qarz miqdorining 84 foizini, yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat ichki qarzi 6479 million AQSh dollarini tashkil qilib umumiy qarz miqdorining 16 foizini tashkil qilgan (1-jadval).

1-jadval

Davlat qarzi holati tahlili (o'lchov birligi - mln. AQSH doll.)

	Ko'rsatkichlar nomi	2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
		mln doll	jamiga nisbatan foizda	mln doll	jamiga nisbatan foizda	mln doll	jamiga nisbatan foizda	mln doll	jamiga nisbatan foizda
	Davlat qarzi	26 323	100%	29 231	100%	34 927	100%	40 199	100%
	YAIMga nisbatan foizda	34,0%		32,4%		34,4%		35,0%	
I	Tashqi qarz	23 582	90%	25 914	89%	29 639	85%	33 720	84%
	YAIMga nisbati	30,5%		28,8%		29,2%		29,3%	
II	Ichki qarz	2 741	10%	3 317	11%	5 288	15%	6 479	16%
	YAIMga nisbati	3,5%		3,7%		5,2%		5,6%	

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy internet sahifasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Rivojlangan mamlakat Amerika Qo'shma Shtatlari bilan solishtiradigan bo'lsak AQShda davlat qarzi 2024-yil yakunlariga ko'ra 34.4 trillion AQSh dollarni, yalpi ichki mahsulot (YaIM) esa 2024-yilda 29,167 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. AQShda davlat qarzi YaIMning 117,9 foizini tashkil qiladi (Anon, n.d.).

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzining 57 foizi ya'ni 19141 mln. AQSh.dollari Xalqaro moliya institutlaridan olingan. Jumladan, 22 foizi Osiyo taraqqiyot

bankidan, 23 foizi Jahon bankidan, 3 foizi Islom taraqqiyot bankidan, 5 foizi Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankidan, 2 foizi Xlaqaro valyuta jamg'armasidan olingan. Xalqaro moliya institutlaridan olinayotgan tashqi qarz miqdori 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 3 foizga oshgan.

Shuningdek, 2024-yilda davlat tashqi qarzining 31 foizi Xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlaridan olingan bo'lib, ushbu qarzning 11 foizi Xitoy davlatining moliyaviy tashkilotlaridan, 9 foizi Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligidan, 2 foizi Koreya Eksimbanki, Koreya iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasidan olingan. 2024-yilda hukumatimiz tashqi qarining 12 foizi Xalqaro obligatsiyalarni sotish orqali jalb qilingan.

2-jadval

Davlat tashqi qarzi to'g'risida ma'lumot (o'lchov birligi - mln. AQSH doll.)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2024-yilning 1-choragi		2024-yilning 2-choragi		2024-yilning 3-choragi		2024-yilning 4-choragi	
		mln doll	Jamiga nisbatan foizda	mln doll	Jamiga nisbatan foizda	mln doll	Jamiga nisbatan foizda	mln doll	Jamiga nisbatan foizda
1	Davlat tashqi qarzi, jami	29 464	100%	30 905	100%	32 222	100%	33 720	100%
1.1.	Xalqaro moliya institutlari (XMI)	16 766	57%	16 876	55%	17 694	55%	19 141	57%
	Osiyo taraqqiyot banki	6 451	22%	6 461	21%	7 146	22%	7 415	22%
	Jahon banki	6 631	23%	6 728	22%	6 796	21%	7 639	23%
	Islom taraqqiyot banki	927	3%	927	3%	929	3%	944	3%
	Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki	1 340	5%	1 352	4%	1 366	4%	1 652	5%
	Xalqaro valyuta jamg'armasi	771	3%	735	2%	725	2%	669	2%
	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki	189	1%	226	1%	290	1%	341	1%
	Boshqa XMilar	456	2%	447	1%	440	1%	481	1%
1.2.	Xorijiy hukumatlarning moliya tashkilotlari	9 813	33%	9 832	32%	10 339	32%	10 444	31%
1.3.	Investorlar	2 885	10%	4 196	14%	4 190	13%	4 135	12%
	Xalqaro obligatsiyalar	2 885	10%	4 196	14%	4 190	13%	4 135	12%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy internet sahifasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi tashqi qarzini 2024-yilda tarmoqlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak olingan qarzlarning 45 foizi budjetni qo'llab-quvvatlash uchun, 17 foizi yoqilg'i-energetika sanoatiga, 5 foizi neft va gaz sohasiga, 11 foizi elektroenergetika tarmog'iga, 9 foizi qishloq va suv xo'jaligiga, 8 foizi uy-joy kommunal xo'jaligiga, 7 foizi sog'liqni saqlash, ta'lim, AKT sohasiga yo'naltirilgan.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonning davlat qarzi ayniqsa tashqi qarzi masalasi so'nggi yillarda nafaqat iqtisodiy balki siyosiy doiralarda ham dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Bunga sabab esa bu sohada mavjud muammolarning ortib borayotganligidir. Ushbu sohada mavjuda asosiy muammolarni ba'zilarini sanab o'tamiz:

- Qarz hajmining tez o'sishi. So'nggi yillarda O'zbekistonning tashqi qarzi keskin oshdi. Jahon moliya tashkilotlari, davlatlararo kreditlar, va xususiylar sektordan olingan qarzlarning davlat

budjeti uchun bosimni oshirmoqda. Bu esa budget barqarorligiga tahdid solishi mumkin, ayniqsa, foiz to'lovlari ortib borayotgan bir paytda.

- Olingan qarzlarining asosan infratuzilma loyihalariga yo'naltirilishi. Ushbu loyihalarning daromad keltirishi uzoq muddat talab qiladi yoki umuman to'g'ridan-to'g'ri foyda keltirmasligi mumkin, bu esa qarzni qaytarish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi.

- Valyuta xatarlariga bog'liqlik. Tashqi qarzlarining aksariyati xorijiy valyutada (AQSh dollari, yevro, yuanga) olingan, bu esa milliy valyuta — so'mning qadrsizlanishi bilan bog'liq xatarlarga olib keladi.

- Samaradorlik monitoringining yetishmasligi. Ba'zi loyihalar uchun olingan kreditlarning qanday sarflanayotganiga oid ochiqlik va monitoring yetarli emas. Bu esa sarflanayotgan mablag'larning qaytmaslik xavfini kuchaytiradi.

Tadqiqot davomida tahlil natijalariga tayanib yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- Davlat tashqi qarzining o'sishini qat'iy nazorat qilish.
- Olingan qarzlarini faqat yuqori daromad keltiruvchi loyihalarga yo'naltirish.
- Boshqaruv va infratuzilma loyihalari o'rniga eksport va valyuta tushumlarini ko'paytiruvchi loyihalarni qo'llab-quvvatlash.
- Mahalliy ishlab chiqarish va xususiy sektorni rag'batlantirish.
- Valyuta kursini barqarorlashtirishga qaratilgan pul-kredit siyosatini olib borish.
- Eksportni rag'batlantirish orqali valyuta tushumlarini oshirish.
- Xalqaro investitsiyalar va xususiy sektorni jalb etish.
- Davlat-xususiy sheriklik (PPP) asosidagi loyihalarni kengaytirish.

Adabiyotlar/ Jumepamypa/References:

Avaz Olimov, Elyor Maxmudov, Namozali Xaydarov. (2020) *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar/Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/Toshkent: Zilol buloq nashriyoti*, – 432b.

Doniyor Abduazizov. (2024). *World Trade Organization and Uzbekistan: way to international economic integration. American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 30, 25–35.

Ergashev D.R. (2021) *Milliy va jahon iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi"*, – 672b.

Imv.uz (n.d.) Available at: <https://www.imv.uz> - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy internet sahifasi.

Isadjanov A.A., Ismailova N.S. (2019) *Jahon iqtisodiyotining globallasuvi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot"*, – 154b.

Ismailova N.S., Shagazatov U.U. (2019) *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. – Toshkent: Noshir nashriyoti*, 2019. – 320b.

Nsp.gov.uz (n.d.) Available at: <https://www.nsp.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Milliy ilmiy portal.

Qaror (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 11.02.2025 yildagi PQ-51-sonli qarori*.

Qonun (2023) *O'zbekiston Respublikasining 02.08.2023-yilda qabul qilingan O'RQ-836-sonli "Davlat qarzi to'g'risida"gi qonuni*.

Ricardo D. (2010) *On The Principles of Political Economy, and Taxation. Edited by Project Gutenberg. 33310/https://gutenberg.org*.

Skidelsky R. (2016) *The Essential Keynes" by John Maynard Keynes. Introduction by Robert Skidelsky. Edited by Robert Skidelskiy. Commentaries by Robert Skidelsky. ISBN9781846148132*.